

**5320900 - Yengil sanoat buyumlari konstruksiyasini ishlash va texnologiyasi (yigirilgan ip ishlab chiqarish) ta'lim yo'nalishi**

**“To'qimachilik mahsulotlari texnologiyasi va jihozlari” fanidan testlar yakuniy davlat attestatsiyasi uchun test savollari**

1. Qayta o'rashdan maqsad nima?
  - A. Iplarni yo'g'onligini oshirish, keyingi jarayon uchun sifatli mahsulot tayyorlash
  - B. \*Iplarni sifati va uzunligini oshirish, keyingi jarayon uchun qulay o'rama olish
  - C. Iplarni uzilishini va og'irligini oshirish, pishitish, o'rash
  - D. Iplarni pishitib o'rash, keyingi jarayon uchun qulay o'rama olish
  
2. O'rash diametri oshgan sari ..... (davom ettiring)
  - A. G'altak tezligi oshadi
  - B. Urchuq tezligi o'zgarmaydi
  - C. \*G'altak tezligi kamayadi
  - D. Urchuq tezligi oshadi
  
3. Tandalashdan maqsad nima?
  - A. \*Ma'lum sondagi va ma'lum uzunlikdagi iplarni bitta o'ramaga o'rash
  - B. Iplarni uzunligini kamaytirish va og'irligini oshirib bitta o'ramaga o'rash
  - C. Iplarni ohorlashga tayyorlash uchun bitta o'ramaga o'rash
  - D. Iplarni jamlab o'rash va uzunligini kamaytirish
  
4. Tandalash jarayoniga qo'yiladigan talablarni ko'rsating.
  - A. Mexanik xususiyati, oxor tayorlash, g'altakga o'rash
  - B. \*Iplarning tarangligi, uzunligi, unumdorligi, chiqindi.
  - C. Fizik xossasi, ipni oxorlash, cho'zish, iplarni yig'ish
  - D. Og'irligi, sifati, to'qima zichligi, tortish, o'ram zichligi
  
5. Tandalash mashinalarining asosiy texnologik qisimlarini ko'rsating.
  - A. Oxor tayorlash, ipni cho'zish, ipni o'rash, baraban, taqsimlagich, yuritgich, tormoz
  - B. Moki, mikroproklachiklar, maxsus ushlagichlar, pnevmatik va gidravlik, pnevmarapirali
  - C. Homuza hosil qilish, arqoq tashlash, arqoqni siljitish, to'qimani tortib olish, tanda uzatish.
  - D. \*Rom, taranglagich, taqsimlagich, o'rash, yuritgich, tormoz, to'xtatuvchi mexanizmlar
  
8. Ohorlashdan maqsad nima?
  - A. \*Iplarni ishqalanishga chidamliligini oshirish
  - B. Iplarni uzunligini oshirish
  - C. Iplarni zichligini, buramlar sonini oshirish
  - D. Iplarni yelimsizlantirish
  1. Iplarni oxorlashda fizik - mexanik jarayonlarini asosiy qismi nimalardan iborat?
    - A. Iplar o'tkaziladi, namlanadi, quritiladi
    - B. \*Iplar oxorlanadi, quritiladi, taqsimlab g'altakka o'raladi
    - C. Iplar eshiladi, namlanib g'altaklarga o'raladi
    - D. Tanda va arqoq iplari emulsiyalanadi, g'altaklarga o'raladi
  
  2. Zamonaviy oxorlash usullari.
    - A. Quyosh nurlari bilan, elektr zaryadlari bilan, havo oqimi bilan, radioaktiv nurlar bilan
    - B. Suv purkash bilan, sovutish bilan, muzlatish bilan
    - C. Guruhlab, p'talab, libitlab, sektsiyalab, to'liq tandalash
    - D. \*Ko'pikda, qizdirib eritilgan ohor eritmasida, erituvchida eritilgan ohor bilan
  
11. Paxta iplarini ohorlashdagi cho'zilish foizini aniqlang?
  - A. \*0,7 - 1,5
  - B. 8 - 10

- C. 5–7
- D. 0,3–0,6

12. Kamerali oxorlash mashinalaridan qachon foydalaniladi ?

- A. Faqat hayvonlardan olinadigan tolali iplarini oxorlashda
- B. \*Jun tolali, lub tolali, bo‘yalgan paxta tolali iplarini oxorlashda
- C. Faqat pishitilgan yakka iplarini oxorlashda
- D. Sintetik, sun‘iy iplar, bo‘yalgan pishitilgan iplarni oxorlashda

13. Tanda iplarini to‘quv dastgohi anjomlaridan qachon o‘tkaziladi?

- A. \*To‘quv dastgohi anjomlari singanda yoki assortiment o‘zgarganda
- B. Tanda iplari oxorlanmasa, bo‘yalmasa
- C. Jun tolali, lub tolali iplarni qayta o‘ralganda, piltalashda va pardozlashda
- D. Bo‘lakli tandalashda va oxorni quritishda

14. Ip o‘tkazish jihozlari qaysi javobda to‘g‘ri ko‘rsatilgan?

- A. Arqoq vilochkasi, uruvchi,
- B. G‘altag, tortuvchi, taxtlovchi
- C. Batan, moki, tig‘
- D. \*Lamel, shoda, gula, tig‘

15. Parallel o‘ram qanday o‘rama shakllarida qo‘llaniladi?

- A. Tog‘ri, kvadrat, uchburchak, variokonus
- B. Qattiq, yumshoq, suyuq
- C. \*Tsilindr, bochkasimon, trapetsiyasimon
- D. Spiralli, prujinali, konusli

16. To‘quvchilikda tayyorlov bo‘limining jarayonlari to‘liq keltirikgan qatorni ko‘rsating?

- A. \*Qayta o‘rash, tandalash, ohorlash, ulash yoki o‘tkazish
- B. Tarash, tandalash, namlash, quritish
- C. Ohorlash, ulash va o‘tkazish, to‘quvchilik, piliklash, qayta o‘rash
- D. Naychaga o‘rash, tandalash, yigirish, ulash

17. To‘qimani to‘quv dastgohida hosil bo‘lishi ketma-ketligi?

- A. Arqoq ipini to‘qima qirg‘og‘iga jiplash, homuza hosil qilish, to‘qimani tortish
- B. \*Homuza hosil qilish, arqoq tashlash va uni jiplash, to‘qimani tortish, tanda uzatish
- C. Homuza hosil qilish, arqoqni jiplash, to‘qimani tortish, arqoq tashlash, tanda uzatish
- D. To‘qimani tortish, tanda ipini bo‘shatish, homuza hosil qilish

18. Arqoq tashlash usuli bo‘yicha to‘quv dastgohi turlari?

- A. \*Mokili va mokisiz
- B. Enli va ensiz
- C. Fizikaviy va kimyoviy
- D. Optik va elektrik

19. Homuza hosil qilish mexanizimlari qanday bo‘ladi?

- A. Shesterniyali, krivoshipli, romli
- B. Ekstsentrkli, zarbli, batanli,
- C. Krivoshipli, usluksiz, uzlukli
- D. \*Kulachokli, karetkali, jakkardli

20. Homuza hosil qilish mexanizmidanda tanda iplarining eng ko‘p uzilishi qaysi parametrlarga bog‘liq?

- A. \*Homuza balandligiga
- B. Batani urishiga
- C. Zarb berishga
- D. To‘qimani tortishiga

21. Tanda iplari harakatlanishi natijasida hosil bo‘ladigan bo‘shlik qanday ataladi?
- A. Shoda
  - B. Gula
  - C. Lamel
  - D. \*Homuza
22. Umumiy xomuza balandligini aniqlang, agar yuqori xomuza balandligi -15mm, pastki xomuza balandligi - 13mm bo‘lsa.
- A. 32mm
  - B. \*28mm
  - C. 14mm
  - D. 56mm
23. Umumiy xomuza uzunligini toping, agar skalodan shodagacha masofa -65mm, to‘qima chetidan shodagacha esa -55mm.
- A. 140mm
  - B. 60mm
  - C. 160mm
  - D. \*120mm
24. Homuzaga arqoq ipini tashlash usullari?
- A. \*Mokili, mikroproklachikli, ushlagichli, pnevmatikli, gidravlikli, pnevmarapirali
  - B. Kulachokli, krivoshipli, prujinali, eshimli, rapirali, shatunli, qattiq, yumshoq
  - C. Ekstsentrikli, mexanikali, harakatlonuvchi, tug‘ri, yumshoq
  - D. Taroqli, mahsus diskli, siqib-zichlovchi, shaybali, spiralli
25. Mokilar sonini ishlanishi bo‘yicha to‘quv dastgoh turlari
- A. Yumshoq va qattiq rapirali
  - B. Mitti mokili va mokisiz
  - C. Suv tomchili va havoli
  - D. \*Bir mokili va ko‘p mokili
26. To‘qimada tanda iplari bo‘yicha zichlikni qanday o‘zgartiriladi?
- A. **Shodalar yordamida**
  - B. \*Tig‘ yordamida
  - C. Gula yordamida
  - D. Lamellar yordamida
27. Tig‘ nomeri deb nimaga aytiladi?
- A. \*10 sm dagi tishlar soniga
  - B. 1 sm dagi tishlar soniga
  - C. 10 sm dagi iplar soniga
  - D. 1 m dagi tishlar soniga
28. To‘qimani tortish va o‘rash jarayoni bu,.....(davom eting)
- A. Tanda iplarini doimmo uzanadi va nazorat qilish
  - B. To‘qima rostlagichidagi g‘ildiraklari almashtirish
  - C. \*Hosil bo‘lgan to‘qima elementini tortish va o‘rash
  - D. Arqoq ipini to‘qima chetiga jipislashtirish
29. To‘qimada arqoq iplarining zichligi qanday o‘zgartiriladi?

- A. Arqoq ipining yo'g'onligi hisobiga
- B. To'qima rostlagichidagi valyanni tishli g'ildiraklar almashishi
- C. Tig'dan o'tgan iplarni sonini o'zgartirib zichlik o'zgartishi
- D. \*To'qima rostlagichidagi almashuvchi g'ildiraklar yordamida

30. Tanda iplarini uzatish va taranglash mexanizmlari

- A. \*Tanda rostlagichlari va tanda tormozlari.
- B. Lamel, gula va shodalalar
- C. Batan mexanizmi va zarb mexanizimi
- D. Sterjinli mexanizim va kulachokli mexanizim

31. Dastgohni nazorat qiluvchi mexanizmlari.

- A. Taranglik nazoratchilari
- B. Uzunlik nazoratchilari
- C. Uzunlik nazoratchilari
- D. \*Tanda va arqoq nazoratchilari

32. Mokisiz to'quv dastgohlarini arqoq nazorat qilish mexanizmlari.

- A. \*Mexanik , elektrik
- B. Bayrog`li arqoq nazoratchilari
- C. Shodalarni nazoratchilari
- D. Tig` nazoratchilari

33. Mokisiz to'quv dastgohlarini tanda nazorat qilish mexanizmlari.

- A. Rapirali, suvli, havoli, aralash, karetkali
- B. \*Elektrli , optik, avtomatik, tenzometrik
- C. Mittimoki, rapira, moki,
- D. Fizik, kimyoviy, mexanik

34. Arqoq va tanda ogohlantiruvchilarining vazifasi?

- A. Arqoq va tanda ogohlantiruvchilari dastgoh nosozligini oldini oladi
- B. Arqoq va tanda ogohlantiruvchilari bosh valni ishlashini ta`minlaydi
- C. Dastgohni havfsiz mexanizmini shikastlamasdan ishlashini ta`minlaydi
- D. \*Arqoq va tanda iplari yetishmaslik nuqsonini oldini oladi

35. To'qima to'qish jarayonida hosil bo'ladigan nuqsonlar.

- A. \*Tanda yetishmaslik, iplarning chalkashishi, arqoq etishmasligi, juftlar, notekis zarb
- B. Arqoq ortib ketishi, tanda ipi buylab tirqishlar, naqshnig buzilishi, to'qima milkini sifatsizligi
- C. Yumshoq ip, ohorlangan ip, uzuq iplarini ko`payishi
- D. Ipning noteksligi, toqimadagi turli dog`lari

36. To'qima o'lchash, tozalash va saralash uskunalari.

- A. MSHB-9/180,SHKB-11/140
- B. \*MKM-180-2,SV4-180
- C. STB-180, AT-120, ATPR-120
- D. SP-140, SL-180

37. To'qimadagi nuqsonlar qanday aniqlanadi?

- A. SV-MKM mashinalaridagi to'qima og'irligi bo'yicha
- B. STB, MKM mashinalaridagi iplarning zichligi bo'yicha
- C. Somet, Beninger dastgohida elektron tarzda yo'riqnoma asosida
- D. \*BU, MKM mashinalaridagi vizual, standartdagi yo'riqnoma asosida

38. To'qima sifati qanday baholanadi?

- A. \*Ballar yig'indisi bo'yicha
- B. Nuqsonlar soni bo'yicha
- C. To'qima ko'rinishi bo'yicha
- D. To'qima og'irligi bo'yicha

39. To'quv o'rilish turlarini keltiring?

- A. Bosh o'rilishlar, murakkab to'qimalarning o'rilishlari
- B. Bosh o'rilishlar, hosila o'rilishlari, aralash o'rilishlar
- C. \*Bosh, mayda naqshli, murakkab, yirik naqshli o'rilishlar
- D. Mayda naqshli o'rilishlari, murakkab to'qimalarning o'rilishlari

40. Iplarni shodalardan o'tkazish tartibi .

- A. To'g'ri, kalta, diogonal, sochma
- B. Uzun, diogonal, qaytma, to'p-to'p
- C. \*Qatorli, sochma, qaytma, to'p-to'p
- D. Parallel, krestitsimon, yumshoq, qatorli,

41. Bosh o'rilishli sinfga kiradigan o'rilishlarni turini ko'rsating?

- A. \*Polotno, sarja, satin, atlas
- B. Atlas, reps, rogojka, ajur
- C. Kuchaytirilgan va siniq sarja, atlas
- D. Ikki qavatli, ikki yuzlama, tukli

42. Aralash o'rilishlar sinfga kiradigan o'rilishlarni turini ko'rsating?

- A. Yakka va reps o'rilishlar
- B. \*Bosh va hosila o'rilishlar
- C. Futer va sarja o'rilishlar
- D. Glad va satin o'rilishlar

43. Gazlama o'rilishda rapport nima?

- A. Tanda iplarining takrorlanishi
- B. Tanda va arqoq iplarining qisqarishi
- C. \*Orilish naqshning takrorlanishi
- D. Arqoq iplarining takrorlanishi

44. Polotno o'rilishining belgilarini aniqlang?

- A.  $*R_t=R_a=2; S=1$
- B.  $R_t=R_a=7; S=3$
- C.  $R_t=R_a=5; S=2$
- D.  $R_t=R_a=3; S=1$

45. Trikotaj deb, .....(to'ldiring)

- A. Tanda va arqoq iplarini o'zaro bir-birining orasidan o'tkazib ma'lum bir ketma-ketlikda o'tkazib to'qilgan to'qimachilik matosidir
- B. To'qimani yoki tolalarni elimnalish yoli bilan olingan to'qimachilik matosidir
- C. \*Bir yoki bir necha iplardan halqa hosil qilish yo'li bilan bir-birining orasidan o'tkazib to'qilgan to'qimachilik matosidir
- D. Toqimani oqartirilishiga aytiladi

46. Trikotaj to'qimasining eng muhim o'lchamlari?

- A. \*Trikotaj to'qimasining zichligi, halqadagi ip uzunligi, yuza zichligi
- B. Trikotaj to'qimasining halqa ipi uzunligi, halqadagi iplar soni, namligi
- C. Trikota to'qimasining namligi, ip uzunligi, kirishishi
- D. Tanda va arqoq iplari soni, rangi

47. Trikotaj zichligining yo'nalishlari qanday?

- A. Vertikal va diogonal
- B. Gorizontal va diogonal
- C. \*Gorizontal va vertikal
- D. Faqat diogonal

48. Halqa qadami deb nimaga aytiladi?

- A. \*Bitta halqalar qatoridagi ikki qo'shni halqa o'qlari orasidagi masofaga aytiladi
- B. Ikki halqalar qatori orasidagi eng katta halqa balandligiga, halqadagi ip uzunligiga aytiladi
- C. Uchta ustunlar orasidagi masofalar yig'indisiga aytiladi
- D. Ignalar orasidagi masofaga aytiladi

49. Halqa qatori balandligi deb nimaga aytiladi?

- A. Uchta ustunlar orasidagi masofalar yig'indisiga aytiladi
- B. Ignalar orasidagi masofaga aytiladi
- C. \*Bitta halqa ustunchasidagi ikki qo'shni halqa o'qlari orasidagi masofaga aytiladi
- D. Bitta halqalar qatoridagi uchta qo'shni halqa o'qlari orasidagi masofaga aytiladi

50. Trikotaj mashinasi klassi deb nimaga aytiladi?

- A. Masinadagi halqa hosil qiluvchi ilmoqli ignalar hamda ignadon og'irliklarining umumiy soniga aytiladi
- B. \*Ignadon uzunligi birligida qancha igna qadamlari joylashganligini ko'rsatuvchi songa aytiladi
- C. Tanda iplarini uzunasiga, arqoq iplarini eniga qisqarishiga aytiladi
- D. Ignalar orasidagi masofaga aytiladi

51. Halqa hosil qilish uchun zarur bo'lgan ishchi a'zolariga qaysilar kiradi?

- A. \*Ignalar, platinalar; ip yurgizgichlar; siquvchi moslama; qulflar
- B. Ignalar, platinalar; urchuq, taroq, siquvchi moslama
- C. Yugurdak, halqa, ballon cheklagich, skalo
- D. Gula, ip yurgizgichlar; siquvchi moslama; yugurdak, tortuvchi valiklar

52. Trikotaj mashinasida ipni ignaga qo'yish yoki yo'naltirish uchun qaysi mexanizm xizmat qiladi?

- A. Yugurdak
- B. Siquvchi moslama
- C. Platina
- D. \*Ip yurgizgich

53. Ilgagi bor ignali tanda toquv mashinalarida halqa hosil qilish jarayoni nechta amaldan tashkil topgan?
- A. \*10
  - B. 12
  - C. 8
  - D. 6
54. Trikotaj to'quv mashinalari ignadonlar soniga qarab qanday farqlanadilar?
- A. 1 va 3 ignadonli
  - B. 8 ignadonli
  - C. 5 ignadonli
  - D. \*1 va 2 ignadonli
55. Teskari trikotaj to'qimasini to'qish uchun jarayonda qanday ignalardan foydalaniladi?
- A. \*Ikki boshli tilchali ignalar
  - B. Bir boshli ilmoqli ignalar
  - C. Ko'zchali ignalar
  - D. Tirqishli ignalar
56. Tanda to'qish trikotaj mashinasidagi ko'zchali igna nima uchun xizmat qiladi?
- A. Eski halqani surish
  - B. Igna ilgagini siqish
  - C. \*Ipni uzatish uchun
  - D. Halqalarni birlashtirish
57. Bir qavatli bo'y-lamasiga to'qilgan bosh to'qimalarga qaysi o'rilishlar kiradi?
- A. Futer, sharme, polotno
  - B. Polotno, sarja, satin
  - C. \*Zanjir, triko, atlas
  - D. Atlas, glad, rogojka
58. Ko'ndalangiga to'qilgan trikotajda .....(to'ldiring)
- A. \*Halqalar qatori bitta ipning ketma-ket egilishidan hosil qilinadi
  - B. Titilgan tolalardan to'shama bir nasha qavat taxlanishidan hosil qilinadi
  - C. Halqalar qatori, parallel joylashgan tanda iplarining butun bir tizimini hosil qilinadi
  - D. Tanda va arqoq iplari o'zaro o'rilishadi
59. Bo'y-lamasiga to'qilgan trikotajda ....(to'ldiring)
- A. Halqalar qatori bir ipning ketma-ket egilishidan hosil qilinadi
  - B. Tanda va arqoq iplari o'zaro o'rilishadi
  - C. Qayta taralgan pilta cho'ziladi, ingichkalanadi, buram beriladi, g'altakka o'raladi
  - D. \*Halqalar qatori parallel joylashgan tanda iplarining butun bir tizimidan hosil qilinadi
60. Qanday rapportdagi lastik buralmaydi?
- A. \*lastik 2+2
  - B. Lastik 4+7
  - C. Lastik 5+1
  - D. Hamma lastik buralmaydi

61. Bir qavatli ko'ndalangiga to'qilgan bosh to'qimaga qaysi o'rilish kiradi?
- A. Sarja
  - B. \*Glad
  - C. Futer
  - D. Zanjir
62. Ikki qavatli ko'ndalangiga to'qilgan bosh trikotaj to'qimasiga qaysi o'rilish kiradi?
- A. \*Lastik
  - B. Sarja
  - C. Polotno
  - D. Zanjir
63. Ikki lastik aralashmasidan iborat bo'lib, uning protyajkalari o'zaro krest shaklida kesishadigan o'rilish nima deb nomlanadi?
- A. Polotno
  - B. Satin
  - C. \*Interlok
  - D. Glad
64. Zanjir trikotaj to'qimasi qanday to'qima sirasiga kiradi?
- A. Diagonaliga to'qilgan bir qavatli jakkard trikotaj to'qima
  - B. Ko'ndalangiga to'qilgan ikki qavatli trikotaj to'qima
  - C. Yopqichli ikki qavatli trikotaj to'qima
  - D. \*Bo'yلامasiga to'qilgan bir qavatli bosh trikotaj to'qima
65. Naqshli trikotaj qanday hosil qilinadi?
- A. \*Bosh yoki hosila trikotaj to'qimalar asosida tarkibiga qo'shimcha iplar kiritish yoli bilan
  - B. Faqat bosh trikotaj to'qimalar asosida tarkibiga qo'shimcha oxorlovchi suyuqlik purkash yoli bilan
  - C. Hosilali trikotaj to'qimasi tarkibiga qo'shimcha elementlar kiritilmagan trikotaj to'qimasi
  - D. Polotno o'rilishi hosilasidan
66. Naqshli trikotaj to'qimalar nima maqsadda ishlab chiqariladi?
- A. Toqimani oqartirish, pardozlash uchun
  - B. \*Mahsulot turini kengaytirish, sifatini oshirish, tashqi ko'rinishini bezash
  - C. Trikotaj mahsuloti rangini o'zgartirish, iplarni sonini kamaytirish, yupqalashtirish
  - D. Sintetik iplardan ko'ndalangiga to'qilgan bir qavatli to'qima olish uchun
67. Naqshli trikotaj o'rilishiga kiruvchi o'rilishni aniqlang?
- A. \*Ajur
  - B. Glad
  - C. Satin
  - D. Polotno
68. Issiqlik saqlash xususiyati yuqori bo'lgan trikotaj to'qimasi?
- A. Zanjir, polotno
  - B. Ajur -satin
  - C. \*Yopqichli futer
  - D. Hosilali glad



69. Futer, arqoqli trikotaj to‘qimalari asosan nima maqsadda ishlatiladi?
- A. \*Issiq kiyimlar uchun
  - B. Texnik matolar uchun
  - C. Yozgi kiyimlar uchun
  - D. Futbolka va maykalar uchun
70. Arqoqli trikotaj qanday maqsadlarda ishlatiladi?
- A. Faqat paypoq mahsuloti olishda
  - B. Ko‘ndalangiga to‘qilgan to‘qima olish uchun
  - C. \*Cho‘ziluvchanlikni kamaytirish zarur bo‘lganda
  - D. Yorqin, relefli shakl ishlab chiqarish uchun
71. Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishning qanday usullari mavjud?
- A. Qadoqlash, yarim muntazam, qayta tarash usullari
  - B. Tikish, titish, chuvish usullari
  - C. Yarim muntazam, yopishtirish, presslash usullari
  - D. \*Bichish, yarim muntazam, muntazam usullari
72. Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishning qaysi usulida juda ko‘p qirqim ko‘rinishidagi chiqindi chiqadi?
- A. \*Bichish
  - B. Qadoqlash
  - C. Kupon
  - D. Muntazam
73. Trikotaj mahsulotlari ishlab chiqarishda donali buyumlar qaysi usulda ishlab chiqariladi?
- A. Qadoqlash
  - B. \*Muntazam
  - C. Bichish
  - D. Kupon
74. Ipak tolasi qaysi madaniylashtirilgan tut ipak qurti pillasidan olinadi?
- A. Muga ipak tolasi Bombuxmandarina tut ipak qurti
  - B. Eri ipak tolasi Bombuxmori tut ipak qurti
  - C. Tussar ipak tolasi Anthera caproilyi tut ipak qurti
  - D. \*Malberi ipak tolasi Bombuxmori tut ipak qurti
75. Odatiy usulda boqilganda bir quti qurt urug‘i uchun qancha tut bargi kerak bo‘ladi?
- A. 150-500 kg
  - B. \*800-1200 kg
  - C. 60-160 kg
  - D. 1500-2000 kg
76. Urg‘ochi kapalak necha donagacha tuxum qo‘yadi?
- A. \*400-800
  - B. 100-300
  - C. 1100-1200
  - D. 900-1000
77. G‘umbakni kapalakka aylanish davri necha kun davom etadi?
- A. 9-12 kun
  - B. 14-21 kun
  - C. 2-5 kun
  - D. \*6-7 kun

78. Tut ipak qurtining hayoti necha davrdan iboratdir?  
A. \*4  
B. 2  
C. 8  
D. 5
79. Madaniylashtirilgan tut ipak qurti kapalagining yangi qo'yilgan tuxumining rangi qanday bo'ladi?  
A. Nim yashil  
B. To'q qora  
C. \*Och sariq  
D. Qizilroq
80. Pilla ipining kimyoviy tarkibi qaysi moddalardan iborat?  
A. \*Fibroin, seritsin  
B. Kraxmal, tsellyuloza  
C. TSellyuloza, efir  
D. Kislota, tuz
81. Ipakni necha haroratga qadar qizdirsak, u o'z xususiyatini yo'qotmaydi?  
A. 180 °C  
B. \*140°C  
C. 100 °C  
D. 210 °C
82. Pilla rangini aniqlash uchun ultrabinafsha nurlar ta'sirida lyuministsent analiz qilinganda pillalar toza oq bo'lsa qanday ko'rinadi?  
A. to'q pushti rangni oladi  
B. toza sariq rangni oladi  
C. \*ko'k binafsha rangni oladi  
D. sariq jigar rangni oladi
83. Muzlatish usuli bilan o'ldirishda g'umbakni o'ldirish uchun pillalarni qanday haroratda saqlanadi?  
A. -19 dan -24<sup>0</sup> C  
B. 0 dan +8<sup>0</sup> C  
C. - 26 dan -50<sup>0</sup> C  
D. - 4 dan +3<sup>0</sup> C
84. **G'umbakni o'ldirishda qaysi usul keng qo'llaniladi?**  
A. \*Qizitilgan havo bilan  
B. Yuqori chastotalik tok bilan  
C. Muzlatish usuli bilan  
D. Radioaktiv nurlar bilan
85. **G'umbakni issiq havo bilan o'ldirish va quritish qancha daqiqa vaqt talab qiladi?**  
A. 30-40 minut  
B. \*60-90 minut  
C. 100-120 minut  
D. 45-50 minut
86. Pillalar partiyasi deb nimaga aytiladi?  
A. bir xil sharoitda boqilgan zot yoki gibrid qurtlarining o'rgan yoki qabul qilish punktiga har xil vaqtda topshirilgan pillalar  
B. har xil sharoitda boqilgan zot yoki gibrid qurtlarining o'rgan yoki qabul qilish punktiga 2 kunda topshirilgan pillalar  
C. \*bir xil sharoitda boqilgan zot yoki gibrid qurtlarining o'rgan yoki qabul qilish punktiga bir vaqtda topshirilgan pillalar

- D. har xil sharoitda boqilgan zot yoki gibrid qurtlarining o'ragan yoki qabul qilish punktiga 8 kunda topshirilgan pillalar
87. Pillani dastlabki ishlash texnologiyasi bosqichlari?
- A. \*Pillani aralashtirish, qobig'ini olish, kalibrlash
  - B. Pillani qobig'ini olish, yuvish, qirqish, piliklash
  - C. Pillani kalibrlash, chuvash, eshish
  - D. Pillani qirqish, tarash, piltalash
88. Pillani kalibrlash nima?
- A. Pillani bug'lash va quritish
  - B. Pillani uchini topish, silkitish
  - C. Pillani bug'lash
  - D. \*Pillani o'lchami bo'yicha saralash
89. **Pillalarni chuvishga tayyorlash jarayonlari ketma-ketligi?**
- A. \*Pillani namlash, seritsini yumshatish, pilla uchini topish, silkitish va tozalash
  - B. Pillani tozalash, chivish, tarash, piltalash, yigirish, pishitish va quritish
  - C. Yog'ini yo'qotish, dastalash, pilla uchini tortish, tozalash, to'qish, pardoqlash
  - D. Pillani kalibrlash, piltalash, yigirish, silkitish
90. Avtomatik pilla chuvish dastgohi?
- A. \*FY2008
  - B. KMC 10
  - C. R 60
  - D. Avtokoner 6
91. Pilla losi, qaznoq, chuvilmaydigan pillalar, xom ipak uzuqlari, g'umbak qayerda ajralib chiqadi?
- A. Savash bo'limida
  - B. Pillani qabul qilish punktida
  - C. \*Pilla chuvish bo'limida
  - D. Nazorat –yig'uv punktida
92. Ipak tolalar titilib holst holiga aylangandan keyin qaysi jarayondan o'tkaziladi?
- A. \*Shtapellash
  - B. Piliklash
  - C. Yigirish
  - D. Kalibrlash
93. Klassik tizimda tabiiy ipak chiqindilaridan ip yigirishda qanday tarash mashinasi qo'llaniladi?
- A. shlyapkali tarash mashinasi
  - B. valikli tarash mashinasi
  - C. rotorli tarash mashinasi
  - D. \*doiraviy tarash mashinasi
94. Qaysi tolalarni qayta ishlashda karbonizatsiya jarayonidan foydalaniladi?
- A. \*jun tolasi
  - B. zig'ir tolasi
  - C. paxta tolasi
  - D. kimyoviy tola
95. Jun tolalariga dastlabki ishlov berish jarayonlari.....
- A. \*Qabul qilish, tozalash, yuvish, quritish, toylash
  - B. Junni qirqish, topshirish, savash, tarash, yigirish
  - C. Titish, saralash, piliklash, yuvish, quritish
  - D. Aralashtirish, savash, toylash

96. Jun tolalarning mayin yoki dag'alligiga qarab qanday turga ajratilgan?
- A. aralash, ingichka, yarim ingichka, dag'al
  - B. \*ingichka, yarim ingichka, yarim dag'al, dag'al
  - C. o'xshash, aralash, ingichka, yarim ingichka
  - D. yarim ingichka, yarim dag'al, dag'al, o'xshash
97. Dag'al va yarim dag'al junni va ularning kimyoviy tolalar bilan aralashmasini tarash uchun kanda tarash mashinalari ishlatiladi?
- A. uch karra tarash apparatlari
  - B. shlyapkali tarash apparati
  - C. valikli bir karra tarash
  - D. \*ikki karra tarash apparatlari
98. ola olish uchun yetishtiriladigan zig'ir turi?
- A. \*dolgunes
  - B. kudryash
  - C. mejeumok
  - D. sizal
99. Tresta olish; quritish; trestani ezish; kaltaklash; chiqindilardan tozalash; navlarga ajratish; qisqa va uzun tolalarga ajratib, toylarga 'resslash-bu kaysi tolalarni dastlabki ishlash jarayonlari?
- A. Rami
  - B. Kanop
  - C. \*Zig'ir
  - D. Viskoza
100. Zig'irni o'rib olish va yig'ishtirish qachon amalga oshiriladi?
- A. Ekishdan 15-16 hafta keyin
  - B. Unib chiqqandan 40-50 kundan keyin
  - C. \*Ekishdan 11-12 hafta keyin
  - D. Gullash oxirida